ANTRAPONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI HAQIDA

О ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЯХ АНТРОПОНИМОВ

ABOUT THE LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF ANTHROPONYMS

Jo‘rayeva Rohatoy Rahmatjon qizi
Farg`ona viloyati Marg`ilon shahar
7-umumiy o`rta ta`lim maktabi ona tili va adabiyot o`qituvchisi.

Annotatsiya. *Ushbu maqola jahon va o‘zbek tilshunosligida leksik birlik bo‘lgan antroponimlarning o‘rganilishi, ularning leksik-semantik tuzilishi, tilning lug’at boyligini ko‘rsatuvchi muhim xususiyatlardan biri ekanligi haqida. Shuningdek, atoqli otlar va ularning ma’nolari izohlanib va ularning ma’nosidagi shaxs otlarini ijobiy yoki salbiy o‘rinlarda qo‘llanilishi izohlangan.*

Аннотация. *В данной статье речь идет об изучении антропонимов, являющихся лексическими единицами в мировом и узбекском языкознании, их лексико-семантической структуры, что является одним из важных признаков лексического богатства языка. Также объясняются известные имени и их значения, а также объясняется использование личных имен в их значении в положительных или отрицательных местах.*

Abstract. *This article is about the study of anthroponyms, which are lexical units in world and Uzbek linguistics, their lexical-semantic structure, which is one of the important features of the lexical richness of the language. Famous nouns and their meanings are also explained, and the use of personal nouns in their meaning in positive or negative places is also explained.*

Kalit so‘zlar: *antroponimlar, atoqli otlar, shaxs otlari, leksik ma’no, semantik ma’no, leksikologiya.*

Ключевые слова: *антропонимы, известные имена, лычные имена, лексическое значение, семантическое значение, лексикология.*

Key words: *anthroponyms, famous nouns, personal nouns, lexical meaning, semantic meaning, lexicology.*

Jahon va o‘zbek onomastikasi, shuningdek, antroponimlarning nazariy va amaliy muommolariga doir ilmiy tadqiqotlar, izlanishlar olib borilmoqda. Shuning

uchun ham badiiy matnlardagi antroponim materiallarini tekshirib o‘rganish, leksik-semantik jihatdan tahlil etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga molikdir. Onomastika bo‘limi, xususan antroponimlar bo‘yicha bir qancha ilmiy asarlar, dissertatsiyalar, monografiyalar, maqolalar yozilgan.

Jahon tilshunoslari onomastik va antroponimik terminologiya, ularning dolzarb muommolariga bag’ishlab qimmatli ma’lumotlar, fikrlar keltirgan. Bu sohalarning ravnaq topishida rus tilshunos va nomshunoslari: O.S.Axmanova, V.A.Nikonov, A.K.Matveyev, L.M.Gorodilova va boshqa ko‘plab tilshunoslarning xizmatlari katta. Biz bu olimlarning ba’zi fikrlariga to‘xtalib o‘tamiz. A.K.Matveyevning onomastika va onomatologiya terminologiyasiga bag’ishlangan “Onomastika va onomatologiya:terminologik etyud” nomli maqolasi “Onomastika masalalari”(Вопросы ономастики) jurnalida nashr qilingan [7,12]. Ushbu maqolada keltirilishicha, har qanday fanning rivojlanishi doimo terminologik tizimning shakllanishi va takomillashuvi bilan birga kechadi va yangi fanning shakllanishida haqiqiy terminologik portlashga olib kelishi mumkin. Onomastika – bu yangi fan emas, balki uning insonparvarlik bilimlari orasidagi o‘ziga xos mavqei, ko‘p marotaba uzoq munozaralarga sabab bo‘lgan. Tildagi ismlarning holati, ma’nosi xilma-xilligi onomastika terminologiyaning taqdiriga ta’sir ko‘rsatgan. Bu murakkab va qarama-qarshi hodisa hisoblanadi. Shuning uchun, normalashgan deb da’vo qiladigan onomastik terminlar lug’ati mavjud bo‘lishiga qaramay, uni takomillashtirish masalasi haligacha dolzarbdir.

Onomastika bo‘yicha diqqatimizni tortgan yana bir tilshunos olim V.I.Suprinning “Onomastika terminologiyasi haqida o‘ylar” maqolasidir. Maqolada onomastika sohasi ilmiy, mustaqil yo‘nalishda shakllanganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. V.I.Suprin onomastika fani XXasrning o‘rtalarida paydo bo‘lganligini ta’kidlab o‘tgan [10, 133-138].

O‘zbek tilshunosligida onomastika va antroponimika sohasidagi muommolarni bartaraf etishda va bu sohalarni rivojlanishida bir qancha tadqiqotchilarimiz o‘z hissasini qo‘shgan. Bular: E.Begmatov, X.Dadaboyev, G’.Abdurahmonov, N.Mahmudov, N.Husanov, T.Nafasov, N.Uluqov, B.Yo‘ldoshev, R.Nuriddinova, Ya.Avlaqulov, D.Xudoyberganova, D.Andaniyozova kabi tilshunoslarimizdir. Ulardan ayrimlarining fikrlari haqida ma’lumot keltirib o‘tamiz.

Masalan, N.Mahmudov “Fan tili va til fani” nomli maqolasida “Har qanday fanni o‘rganish, o‘zlashtirish uchun uning alifbosidan – terminologiyasidan xabardorlik zarur bo‘ladi. Ma’lumki fanning katta-kichik tushunchalari bevosita terminlar orqali ifodalanadi” deya o‘z fikrlarini keltirgan [8, 3]. Demak, har bir fanni o‘rganishda,ularning ma’nolarini bilishda terminlarning ahamiyati juda katta. Shuning uchun ham har bir sohaga oil lug’atlar yaratilmoqda. O‘zbek

terminologiyasining boyigani va rivojlanganligini mana shu yutuqlarimizdan ko‘rishimiz mumkin.

B.Yo‘ldoshev “O‘zbek onomastikasi masalalari” nomli kitobida antropoimlar haqida so‘z yuritib, atoqli otlar haqida shunday fikrlar bildiradi: “Tildagi atoqli nom (ot)larning xilma-xil xususiyatlari juda qadimgi davrlardan buyon turli soha olimlarining diqqatini o‘ziga jalb etib kelmoqda. Masalan, qadimgi yunon olimlari Aristotel, Demokrit, Geraklitning asarlarida ham atoqli otlarning xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan edi. Jumladan, Aristotel “Poetika” asarida otni putq bo‘laklaridan biri deb hisoblaydi va unga quyidagicha ta’rif beradi: “Ot murakkab, mahno anglatuvchi, zamonni bildirmaydigan, qismlari o‘z-o‘zidan mahno anglatmaydigan so‘zdir”. Eramizgacha 1-asrda yashagan Yuliy Polluks “Onomastik” nomli atoqli otlarga izoh beruvchi lug‘at yaratgan. Stoiklar, jumladan *Xrisip* atoqdi otlarni alohida til birligi, so‘zlar guruhi deb tasnif qilgan edi. Uyg‘onish davrida va o‘rta asrlarda (T.Gobbs, J.Lokk, G.Leybnis) hamda butun XIX asr davomida (Dj.Mill, X.Jozef va boshqalar) atoqli otlar, ularning til lug‘aviy qatlamidagi o‘rni masalasiga doir munozara davom etdi. Bu sohada eng muhim masala atoqli otlar qanday ma’no bildirishini aniqlashdan iborat edi.” [11, 21]

D.Andaniyizova “Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi” mavzusida yozgan ilmiy tadqiqot ishida onomastik birliklarni tahlil qilar ekan, shunday yoadi: “Bizningcha ham, badiiy matndagi har qanday nom emas, balki ijodkor badiiy niyatini èritishga xizmat qilgan nomlar poetonim termini ostida o‘rganilishi maqsadga muvofiq. Chunki ayni termin onomastik birliklardan yasaladigan poetonimlarning ichki turlarini nomlashda ham qulaydir. Masalan, poetik yukli shaxs nomlariga nisbatan «antroponim» emas, balki «antropoetonim», hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar uchun «zoopoetonim», joy nomlariga nisbatan «topopoetonim» tarzidagi sof sohaviy terminlarni qo‘llash sohaga oid terminlarni bir qadar tartibga solishga yordam beradi”[1,12]. D.Andaniyozova o‘zining mazkur tadqiqot ishida onimlar o‘z nominativ vazifasidan tashqari, badiiy adabiyot va folklor asarlari tilida o‘ziga xos badiiy-uslubiy vazifa bajarishini ta’kidlab o‘tgan. Biz ham bu fikrlarni ma’qullaymiz.

Lekin o‘zbek tilidagi atoqli otlarning ba’zi tiplari shu kunga qadar deyarli o‘rganilgan emas yoki kam taxlil qilingan [2,45]. Bunday masalalar qatoriga kosmonimlar (astronimlar), mifonimlar, ktematonimlar, agnonimlar, nekronimlar, gemeronimlar, dokumentonimlar, oronimlar, nptronimlar, pereytonimlar, xromonimlar, geortonimlar, smeleonimlar, fitonimlar, ekklezionimlar, ergonimlar, chrsmatonimlar, badiiy onomastika, onomastik uslubiyat, laqab va taxalluslar, atoqli otlarning imlosi [3,368], nomshunoslikning pmaliy va nazariy muammolari, jumladan onomastik leksikografiya muammolari kiradi [4, 327].

X.Dadaboyevaning fikricha, umumiste'mol so'zlardan farqli ravishda doim maxsus tushunchalarni anglatish, ifodalash uchun xizmat qilishga yo'naltirilgan terminlar o'zbek adabiy tilining shakllanish va taraqqiy etish bosqichlari zaminida tarkib topdi va takomillashdi. O'zbek adabiy tili leksikasi qonuniyatlari negizida shakllangan terminologik leksika tarixini qadimgi turkiy til (VII-X) terminologiyasi, eski turkey til (XI-XIV) terminologiyasi, eski o'zbek adabiy tili (XV-XX asr boshi) terminologiyasi, sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi va istiqlol davri o'zbek tili terminologiyasi tarzida davrlashtirish salkam o'n to'rt asrlik vaqt mobaynida terminologik leksika tizimida ekstralingvistik va lingvistik omillar negizida sodir bo'lgan jarayonlarni anglab yetish imkonini beradi [6,9] .

O'zbek nomshunosligida E.Begmatovning xizmatlari tahsinga sazovordir. Chunki o'zbek tilidagi onomastikaga oid lug'atlarni mana shu tadqiqotchimiz tuzgan. Shu o'rinda aytishimiz joizki, E.Begmatovning ancha salmoqli va mazmundor, ota-onalarning sevimli lug'atiga aylanib ketgan 14600 ta ismlarni o'zida jamlagan "O'zbek ismlari izohi" berilgan lug'atni kiritishimiz mumkin[5,605] . Aynan shu lug'atda ma'nosi izohlangan Abdulloh ismiga to'xtalib o'tsak. *Abdulloh ismining ma'nosi – ushbu ism asosan o'g'il bolalarga qo'yiladi va bu ism arabcha bo'lib, "Allohning quli, suygan bandasi". Muhammad (sollalohu alayhi vasallam)ning otalarining ismi*. Bunda qul so'zi shaxs oti bo'lib, ijobiy ma'noda qo'llanilgan,ya'ni Allohning suyuklisi ma'nosida. Aslida ijtimoiy kelib chiqqanda jamiyatda qul so'ziga nisbatan salbiy ma'noda ishlatiladi. "Saodat asri qissalari"asarining tarjimasidan bir misol keltiramiz va fikrimizni izohlab beramiz. *Bilol ibn Abu Raboh habash – qop-qora tanli, uzun bo'yli, biroz bukri, sochlariga oq tushgan, siyrak soqolli bir qul edi. Makka aslzodalaridan Umayya ibn Xalafning quli edi (Ahmad Lutfiy Qozonchi, Saodat asri qissalari, 3-kitob, 209-bet)* . Bu misolimizda qul so'ziga eng past tabaqada turuvchi xizmatkor ma'nosida qo'llanilgan. Demak, qul shaxs otini ham ijobiy, ham salbiy ma'nolarda qo'llashimiz mumkin. Atoqli otlar va turdosh otlar o'zaro kognitiv ma'no ifodalaydi. Atoqli otlar va turdosh otlar A.Karpenkoning "Atoqli va turdosh otlarni farqlashning nazariy asoslari"(1975), A.D.Zverning "Atoqli va turdosh otlar haqida"(1976) nomli asarlarda ular haqida nazariy ma'lumotlar batafsil keltirilgan.

M.Radjabova o'zining onomastikaga oid ilmiy-tadqiqot ishida antroponim komponentli frazeologik birliklar haqida shunday misol keltiradi: " Antroponim (kishilarning nomlari) komponentli FBlar. Bu guruh frazeologik birliklari o'z navbatida bir necha guruhlarga bo'linadi. Masalan, ingliz tilida: *Jack at pinch*; rus tilida: *по Ивашке и рубашка*; o'zbek tilida: *Ishni qilar Masharif, mushtni yeydi Mirsharif.* [9,17]

Xulosa qilib aytganda, rus olimlarining onomastika va antroponimika terminlari va ular haqidagi ma'lumotlarga ko'ra onomastika tilshunoslikning alohida mustaqil bo'limi, antroponimika — kishi nomlarini o'rganuvchi onomastikaning bir tarmog'i. Tadqiqotlarimizni korib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, jahon, ayniqsa rus tilshunosligida va o'zbek tilshunosligida onomastika va uning kishi ismlarini o'rganuvchi antroponimika sohalarini tadqiq etish va qiziqish nihoyatda kuchli. Bu sohalar tez suratlarda o'sdi va rivojlandi. Yana o'rganilmagan boshqa tomonlari ham talaygina. Shuning uchun ham bu soha bo'yicha tilshunoslarimiz o'z dissertatsiya, monografiya, maqolalarini ishlab chiqmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Andaniyazova D. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi. F.f.f.d.(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2017.

2. Alimova Z. About common words in Uzbek and Tajik languages, their semantics. Philadelphia, USA. Theoretical and Applied Science. International and Scientific journal. № 5 (97) 2021.

3. Alimova, Z. V. (2019). Borrowings – linguistic phenomena. Philadelphia, *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04 (72), 367-370.

4. Alimova, Z. (2021). The role of borrowings in the growth of the language vocabulary. *AJMR: Asian journal of multidimensional research.* Vol 10, Issue 3, March, 2021.

5. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари изоҳи. 14600 исмлар. – Тошкент: O'збекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2016.

6. Дадабоев Ҳ. "Ўзбек лексикографияси ва терминологияси". O'қув-услубий мажмуа. – Тошкент: 2016.

7. Матвеев А. Ономастика ва ономатология: терминологический этюд // Вопросы ономастики. – Екатеринбург, 2005, №2.

8. Маҳмудов Н. Фан тили ва тил фани // O'збек тили ва адабиёти. – Тошкент: 2013. – № 5.

9. Radjabova M. Onomastik komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihatlari va tarjima muammolari (ingliz, rus va o'zbek tillari materiallarida) . F.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Buxoro, 2020.

10. Супрун В. И. Размышления над ономастической терминологией // Известия Волгоградскую ГПИ. – Волгоград: 2011.

11. Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. Услубий қўлланма. – Самарқанд, 2011.